

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

YADGAROV SIROJIDDIN NOMOZOVICH

**TOG‘LI SHAROITDAGI AVTOMOBIL YO‘LLARIDA QOR
KO‘CHKILARINING SODIR BO‘LISHINI PROGNOZLASH USULINI
TAKOMILLASHTIRISH (QAMCHIQ DOVONI MISOLIDA)**

**05.09.02 – “Geotexnika” (Yo‘llar, yo‘llarni raqamlashtirish va yo‘l harakati xavfsizligi.
Yo‘l telematikasi)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Yadgarov Sirojiddin Nomozovich

Tog'li sharoitdagi avtomobil yo'llarida qor ko'chkilarining sodir bo'lishini prognozlash usulini takomillashtirish (Qamchiq dovoni misolida).....3

Ядгаров Сирожиддин Номозович

Совершенствование метода прогнозирования возникновения снежных лавин на автомобильных дорогах в горных условиях (на примере перевала Камчик)25

Yadgarov Sirojiddin Nomozovich

Improving the method for predicting the occurrence of snow avalanches on roads in mountainous conditions (in the example of Kamchik Pass).....48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....52

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

YADGAROV SIROJIDDIN NOMOZOVICH

**TOG‘LI SHAROITDAGI AVTOMOBIL YO‘LLARIDA QOR
KO‘CHKILARINING SODIR BO‘LISHINI PROGNOZLASH USULINI
TAKOMILLASHTIRISH (QAMCHIQ DOVONI MISOLIDA)**

**05.09.02 – “Geotexnika” (Yo‘llar, yo‘llarni raqamlashtirish va yo‘l harakati xavfsizligi.
Yo‘l telematikasi)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3. PhD/T4966 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.zioynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sodiqov Jamshid Ibrohim o'g'li
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Salixanov Saidxon Salixanovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Xotamov Asadulla Toshtemirovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.15/31.08.2022.T.73.05 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “___” _____soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lhilar ko'chasi 1 – uy. Tel./faks: (998 – 71) 277–54–87, e – mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lhilar ko'chasi 1 – uy. Tel./faks: (998–71) 277–54–87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “___” _____ kuni tarqatilgan.
(2024 yil “___” _____ dagi ___ - sonli reestr bayonnomasi).

A.X. Urokov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

R.M. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, PhD, professor

I.S. Sodiqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqlim o'zgarishi bo'yicha olimlarning xulosalariga ko'ra, o'rtacha havo haroratining oshishi, kuchli yog'ingarchilik, to'satdan kuzatiladigan sovuq havo harorati, noqulay gidrometeorologik hodisalar tufayli qor ko'chkilarining oldini olish masalasi muhim ahamiyatga ega. "Iqlim o'zgarishi tufayli sodir bo'ladigan ko'chkilar transport vositalarining xavfsiz harakatiga salbiy ta'sir etib kelmoqda".¹ Tog'li hududlardan o'tgan avtomobil yo'llarida yuzaga keladigan qor ko'chkilari paydo bo'lishi sabablarini aniqlash va ko'chkilarning sodir bo'lishini prognoz qilish, qor ko'chkilari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'choqlar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yaratish, vaqt mobaynida qor ko'chkilarining sodir bo'lishini modellashtirish va qor ko'chkilarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda tog'li va tog' oldi hududlardan o'tgan avtomobil yo'llarida transport oqimi harakatini uzliksiz tashkil etish, havo haroratining o'zgarishini doimiy monitoring qilib borish, qor ko'chkilarining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hududlarning elektron mavzuli xaritalarini yaratish, qor ko'chkilarini sodir bo'lishini modellashtirish va ko'chkilarni oldini olish ishlarini optimallashtirish, qor ko'chkilarini tasniflash hamda prognozlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tog'li va tog' oldi hududlardan o'tgan avtomobil yo'llarida qor ko'chkilari sodir bo'lganda qor ko'chkilarini tezkor (sodir bo'lgan joyi va sodir bo'lgan vaqti tamoyillari asosida) bartaraf etishning takomillashgan usuli, bundan tashqari avtomobil yo'llarida iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda, qor ko'chki hosil qiluvchi ko'rsatkichlarni (havo harorati, yon bag'ir qiyaligi, qor qatlami qalinligi, qor massasi hajmi) inobatga olib qor ko'chkilarini "Qaror daraxti" (decision tree) uslubi yordamida prognozlashning takomillashgan usuli dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda 2023 yilning qish faslida kuzatilgan anomal sovuq, yozda kuzatilgan anomal issiq hodisalari, 2024 yilda sodir bo'lgan xavfli iqlim hodisalari ham iqlim o'zgarishlari tufayli sodir bo'lmoqda, bundan tashqari qurib borayotgan Orol dengizining ekologik falokati - dunyodagi to'rtinchi dolzarb muammolaridan hisoblanadi, shu bilan bir qatorda iqlim o'zgarishlari barcha sohalar kabi avtomobil yo'llari infratuzilmasiga ham katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. qor ko'chkilari sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tog'li va tog' oldi avtomobil yo'llarining xizmat muddatlarini oshirish va iste'mol xususiyatlarini yaxshilash, qor ko'chkilarini oldini olish ishlarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amalda qo'llash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2023 - 2030-yillarda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining VM-362-son "Milliy harakatlar rejasi"²da, jumladan "Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish" bo'yicha vazifalar belgilangan.

¹ <https://geostamp.ru/index.html>

² O'zbekiston Respublikasining VM-362-son "Milliy harakatlar rejasi"²dagi qarori

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, qor ko'chkisi xavfi mavjud hududlarni aniqlashtirgan holda ularni monitoring qilish va qor ko'chkisini prognozlash, gidrometeorologik parametrlarni kuzatish va nazorat qilish tarmoqlarini rivojlantirish, qor ko'chkisi xavfi bo'yicha prognoz ma'lumotlar va xaritalarni tayyorlash, ularni muntazam ravishda yangilab borish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, PQ - 171 - son "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va PQ-190-son "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining VM-362-son "Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash doirasida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. "Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tog'li sharoitdagi avtomobil yo'llarida qor ko'chkilarining sodir bo'lishini prognozlash usulini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar quyidagi mamlakatlarning ilmiy markazlari, universitet va ilmiy tadqiqot institutlarida, jumladan: University of Michigan (AQSH), University of Tokyo (Yaponiya), RWTH Aachen University (Germaniya), VTI Shvetsiya milliy avtomobil yo'llari va transport ilmiy-tadqiqot instituti (Shvetsiya), Rossiya avtomobil yo'llari ilmiy-tadqiqot instituti (РосдорНИИ), Moskva avtomobil yo'llari davlat texnika universiteti (МАДИ ГТУ), Qozog'iston avtomobil yo'llari ilmiy tadqiqot instituti (КаздорНИИ), Belorussiya Davlat texnika universiteti (БНТУ), Toshkent davlat transport universitetlari (O'zbekiston) hamda Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti (O'zbekiston) va boshqa ko'plab ilmiy tadqiqot muassasalarida olib borilmoqda.

Dunyo tajribasida tog'li sharoitdagi avtomobil yo'llarida qor ko'chkilarining sodir bo'lishini prognozlash usulini takomillashtirish bo'yicha turli uslublar ishlab chiqilgan. Tog'li sharoitdagi avtomobil yo'llarida qor ko'chkilarining sodir bo'lishini prognozlash usulini takomillashtirish bo'yicha dunyo va yurtimizning yirik tadqiqotchi olimlari shug'ullangan, jumladan xorijda James E. Neuman, Jason Price, Paul Chinowsky, Leonard Wright, Lindsay Ludwig, Richard Streeter, Russell Jones, Joel B. Smith, William Perkins, Lesley Jantarasami; MDX davlatlarida B.A. Akimov, E.O. Ivanova, S.P. Sushev, N.V. Xovanova, M.A.Axmedov, K.D. Salyamova va boshqalar. Respublikamizda tog'li sharoitdagi avtomobil yo'llarida qor ko'chkilarining sodir bo'lishini prognozlash usulini takomillashtirish bo'yicha I.S.Sodiqov, Q.X. Azizov, J.I. Sodiqov, B.K. Sarev, E. Semakova, D.R. Yunusov,

L.A. Kanayev, K.B. Bilolov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yuqoridagi tadqiqot ishlari tahlillaridan kelib chiqadiki, tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida iqlim omillarining ekspluatatsiya sharoitiga ta’siri baholangan hamda avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitiga xavfli hodisalarning ta’siri kompleks o‘rganilgan. Ammo, tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlash usulini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy muammolar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Zamonaviy matematik – statistik tahlil usullarining mavjud emasligi O‘zbekiston Respublikasida tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlashni qiyinlashtirmoqda. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilashda asos bo‘ladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti “Avtomobil yo‘llarini qurish va ekspluatatsiya qilish” kafedrasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Yo‘l aktivlarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida transport oqimining uzluksiz harakatini ta’minlash uchun iqlim o‘zgarishlarini hisobga olgan holda, qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlash usulini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining shakllanishi va sodir bo‘lish jarayonlarini tahlil qilish;

tog‘li hududlardagi avtomobil yo‘llarida iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda sodir bo‘lgan qor ko‘chkilari va potensial qor ko‘chki mintaqalarining innovatsion tematik elektron xaritalarini yaratish;

avtomobil yo‘llarida iqlim o‘zgarishi va relyef xususiyatlarining qor ko‘chkilari sodir bo‘lishiga ta’sirini tadqiq qilish;

avtomobil yo‘llariga ta’sir qiluvchi qor ko‘chkilarini prognoz qilish usulini takomillashtirish;

avtomobil yo‘llariga ta’sir qiluvchi qor ko‘chkilarining oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida tog‘li hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llari (A - 373 “Toshkent - Ohangaron - Angren - Qo‘qon – Shahrixon - Andijon (O‘zbekiston Respublikasi hududida)”) avtomobil yo‘lining 185 - 285 km qismi) qabul qilingan.

Tadqiqot predmeti. Tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitiga ta’sir ko‘rsatuvchi iqlim o‘zgarishi oqibatida sodir bo‘ladigan qor ko‘chkilari.

Tadqiqot usullari. Matematik statistika usullari, regression qonuniyatlar, ehtimollik nazariyasi, ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari, “Qaror daraxti” va vizualizatsiya qilish usullari foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tog‘li hududlardagi avtomobil yo‘llarida sodir bo‘ladigan qor ko‘chki mintaqalarining geografik va meteorologik ma‘lumotlariga asoslangan xavfli hududlarni aniqlash va xavf darajasini baholashning innovatsion tematik elektron xaritalari ishlab chiqilgan;

tog‘li hududlardagi avtomobil yo‘llarida havo harorati, yon bag‘ir qiyaligi, qor qatlami qalinligi, qor massasi hajmi va shamol yo‘nalishlarini inobatga olib qor ko‘chkilari sodir bo‘lishiga ta‘sir qonuniyatlari ishlab chiqilgan;

avtomobil yo‘llarida iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda, qor ko‘chki hosil qiluvchi ko‘rsatkichlar (havo harorati, yon bag‘ir qiyaligi, qor qatlami qalinligi, qor massasi hajmi)ni inobatga olib qor ko‘chkilarni prognozlash usuli takomillashtirilgan;

tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilari ro‘y berganda (sodir bo‘lgan joyi va vaqti tamoyillari asosida), qor ko‘chki massasini mashina mexanizmlar yordamida tezkor bartaraf etish usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tog‘li hududlarda iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda sodir bo‘lgan qor ko‘chkilari va potensial qor ko‘chki mintaqalarining geografik va meteorologik ma‘lumotlarga asoslangan innovatsion tematik elektron xaritalar yaratilgan;

tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlash usulini takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalanganligi, iqlim o‘zgarishi natijasida sodir bo‘lgan qor ko‘chkilarining uzoq yillik ma‘lumotlari to‘planganligi, matematik modellashtirish qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajribalar natijalariga matematik sonli hisoblash usullari bilan ishlov berilganligi hamda tajriba va hisob ma‘lumotlarining qiyosiy tahlili hamda ularning o‘zaro mosligi, tog‘ va tog‘ oldi hududida joylashgan tadqiqot obyekti uchastkalarida sinovlar o‘tkazilib, amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasining iqlim o‘zgarishi prognozlari asosida avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitiga ta‘siri aniqlandi. Tog‘ va tog‘ oldi hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llariga xavfli hodisalar ta‘siri bo‘yicha mavzuli xaritalar yaratildi va yaratilgan xaritalar yordamida xavfli iqlim o‘zgarishi hodisalarini kuzatib borish va shu hodisalarni oldini olish, tog‘ va tog‘ oldi hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llarida transport vositalari harakatiga ta‘sir qiluvchi qor ko‘chkilarini prognozlash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasining iqlim o‘zgarishi prognozi asosida tog‘li hududlarda iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda sodir bo‘lgan qor ko‘chkilari va potensial qor ko‘chki mintaqalarining geografik va meteorologik ma‘lumotlarga asoslangan innovatsion tematik elektron xaritalardan foydalanilishi, tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlash usuli yordamida avtomobil yo‘llariga ta‘sir qiluvchi xavfli qor ko‘chkilari sodir bo‘ladigan uchastkalarda xavfni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlash usulini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

tog‘li hududlarda iqlim o‘zgarishini oqibatida sodir bo‘lgan qor ko‘chki mintaqalarini geografik va meteorologik ma‘lumotlarga asoslangan innovatsion tematik elektron xaritalari ishlab chiqilgan va Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining 2024-yil 4-Noyabrdagi, 03/4175-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 362 - sonli “Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida” qarorida belgilangan 2023 - 2030-yillarda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “milliy harakatlar rejasida”da belgilangan qor ko‘chkisi xavfi mavjud hududlarni aniqlashtirgan holda ularni monitoring qilish, xaritalarini tayyorlash, muntazam ravishda yangilab borish va boshqa ustuvor masalalarga erishilgan hamda Qamchiq dovoni hududidagi qor ko‘chki sodir bo‘lish o‘choqlari joylashuvi yangilangan;

tog‘li hududlarida iqlim o‘zgarishi va relyef xususiyatlarini hisobga olib qor ko‘chkilari sodir bo‘lishiga ta’siri qonuniyatlari regression modullar orqali ilmiy asoslangan va Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining 2024-yil 4-Noyabrdagi, 03/4175-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada tog‘li hududlarda sodir bo‘ladigan qor ko‘chkilari sodir bo‘ladigan uchastkalar aniqlangan va tog‘li hududlarda avtomobil yo‘llariga ta’sir ko‘rsatadigan qor ko‘chkilar soni yillik o‘rtacha 25 tadan 15 tagacha kamaytirishga erishilgan;

avtomobil yo‘llarida iqlim o‘zgarishi tufayli qor ko‘chki hosil qiluvchi ko‘rsatkichlar (havo harorati, yon bag‘ir qiyaligi, qor qatlami qalinligi, qor massasi hajmi) inobatga olinib qor ko‘chkilarini «Qaror daraxti» (decision tree) uslubi yordamida prognozlash usuli takomillashtirilgan va Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining 2024-yil 4-Noyabrdagi, 03/4175-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlash usulini takomillashtirish orqali, avvalgi prognoz usullari ishonchlik darajasi 30% dan 70 % gacha oshirishga erishilgan;

tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilari ro‘y berganda, tezkor bartaraf etish usuli (sodir bo‘lgan joy va sodir bo‘lgan vaqt tamoyillari asosida) takomillashtirilgan va Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining 2024-yil 4-Noyabrdagi, 03/4175-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini oqibatlari va evakuatsiya qilish uchun sarflanayotgan mablag‘larni 70-75% gacha iqtisod qilishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqot natijalari xalqaro va respublika miqyosidagi 24 ta ilmiy, ilmiy- texnik anjuman va seminarlarda, jumladan 10 ta xalqaro anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari uchun belgilangan asosiy ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi Respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, 5 ta dasturiy ishlanmaga mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, jami 103 bet matn qismdan iborat.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan hamda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida tog‘ va tog‘ oldi hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlash usullari va unga oid adabiyotlar tahlil qilingan. Iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda qor ko‘chkilarini shakllanishi va sodir bo‘lish jarayonlari tahlil qilingan hamda tadqiqotning ilmiy farazi, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.


Tog‘li hududlar O‘zbekiston Respublikasi hududining 30 foizini egallaydi. Tog‘li hududlarda joylashgan avtomobil yo‘llari O‘zbekiston Respublikasi umumiy yo‘l tarmog‘ining 3% ga yaqinini tashkil etadi. Tog‘ va tog‘ oldi hududlaridan o‘tgan tog‘ avtomobil yo‘llaridan A - 373 “M 39 - Guliston - Buka - Angren - Qo‘qon va Andijon orqali - O‘sh” avtomobil yo‘lining “Qamchiq” dovoni qismi, M - 39 “Olma - Ota - Bishkek - Toshkent - Termiz” avtomobil yo‘lining “Taxtaqorachi” va “Oqrabot” dovoni qismlari asosiy iqtisodiy va strategik obyektlar maqomiga ega.

Tahlil natijalariga ko‘ra 2023 yildagi harakat jadalligi 2000 yillardagiga nisbatan 7 barobar oshgan (1 - rasm).




1 - rasm. A - 373 “M 39 - Guliston – Buka – Angren – Qo‘qon va Andijon orqali – O‘sh” avtomobil yo‘lida 2000-2023 yillar davomida transport vositalarining harakat jadalligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot obyektida transport vositalarining harakat jadalligi oshib borishi bilan avtomobil yo‘llariga ta’sir ko‘rsatadigan xavfli hodisalar (gidrometeorologik, seysmologik va geologik hodisalar) tufayli yo‘lda harakat cheklansa evakuatsiya xarajatlari ham oshib boradi. Tadqiqot obyektida yuqoridagi xavfli hodisalar kelib chiqishiga tog‘ va tog‘ oldi hududlarining relyefi ham to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq (2 – rasm).



2 - rasm. Tadqiqot obyekti A - 373 “M 39 - Guliston – Buka – Angren – Qo‘qon va Andijon orqali - O‘sh” avtomobil yo‘li relyefining joylashuvi


Tog‘ va tog‘ oldi hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llariga turli xil omillar ta’sir qiladi, bulardan qor ko‘chkilari, sellar, tog‘ ko‘chkilari, grunt siljishi va boshqa omillar bo‘lishi mumkin. Tadqiqot ishining ilmiy gipotezasi: iqlim o‘zgarishi oqibatida tog‘ oldi hududlarida sodir bo‘luvchi gidrometeorologik hodisalarning avtomobil yo‘llarida transport vositalarining xavfsiz va to‘xtovsiz harakatiga ta’sirlarini tadqiq qilishdan iboratdir (3 - rasm).



3 - rasm. Ilmiy - tadqiqot ishining dastlabki ilmiy gipotezasi

O‘zbekiston Respublikasi hududida gidrometeorologik hodisalarni prognoz qilish, nazorat – monitoring, talofatlarini oldini olish va xavfli hodisalarning ma’lumotlarini statistik tahlili bilan shug‘ullanadigan tashkilotlardan olingan va ilmiy tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra tog‘ va tog‘ oldi hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitiga ta’sir qiluvchi

xavfli hodisalar (qor ko‘chkisi) ma’lumotlari yig‘ildi. Bu ma’lumotlar qor ko‘chkilari bo‘yicha 1953 - 2023 - yillar oralig‘ida olingan bo‘lib, 15000 dan ortiqni tashkil etadi. Bu ma’lumotlar asosida tadqiqot ishi rejalashtirildi, tadqiqot ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib uning strukturasi shakllantirildi (4 – rasm).



4 - rasm. Ilmiy tadqiqot ishining strukturasi


Hozirgi kunda tog‘ va tog‘ oldi hududlardan o‘tgan tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlash usulini takomillashtirish bo‘yicha xorijdagi va yurtimizdagi tadqiqotchilar tomonidan juda ko‘p tadqiqot ishlari olib borilgan: Qor ko‘chkilarni prognoz qilish usullarini tanqidiy ko‘rib chiqish va ularning Qamchiq dovoni hududiga qo‘llanilishini baholash; Qamchiq dovoni o‘tgan A - 373 “M 39 - Guliston – Buka – Angren – Qo‘qon va Andijon orqali – O‘sh” avtomobil yo‘lida (185 – 285 km oralig‘i) avtomobil yo‘lining gidrometeorologik xavfli hodisalardan xavfsizligini ta‘minlash tizimi va boshqa ilmiy ishlardan iborat.

Tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlash usulini takomillashtirilmaganligi sababli O‘zbekiston Respublikasida tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida transport oqimi harakatining uzluksizligini ta‘minlashni qiyinlashtirgani aniqlandi. Ushbu ilmiy ish bu muammoni bartaraf etishga qaratilgan.


Dissertatsiyaning **“Tog‘li hududlarda iqlim o‘zgarishining avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitiga ta’sirini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasining tog‘li hududlarida iqlim o‘zgarishlari tadqiq qilingan. Tadqiqotlar natijasida iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda sodir bo‘lgan qor ko‘chkilari va potensial qor ko‘chki mintaqalarining innovatsion tematik elektron xaritalari yaratilgan. Tog‘li hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llariga ta’sir qiluvchi qor ko‘chkilarining transport oqimini xavfsiz va to‘xtovsiz harakatiga

ta'siri tadqiq qilingan. Tadqiqot obyekti Qamchiq dovoni orqali o'tganligi uchun Ohangaron va Sirdaryo havzalarida havo haroratining o'zgarishi tadqiq qilinganda yoz oylarida o'rtacha 3 °C ga va qish oylarida o'rtacha 5 °C ga oshganligi aniqlandi.

Tadqiqot obyekti hisoblangan A - 373 "M-39 Guliston – Bo'ka – Angren - Qo'qon va Andijon orqali O'sh" avtomobil yo'li joylashgan hududda 3 ta meteostansiya mavjud. Meteostansiyalardan olingan 200 yillik ma'lumotlar tahlil qilinganda Qamchiq dovoni hududida havo – harorati ortib borganligini ko'rish mumkin. Havo - haroratining ko'tarilishi tog' va tog' oldi yo'llarida o'ziga xos xavfli hodisalar sodir bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin (5 - rasm).



5 - rasm. Qamchiq dovonida yillar kesimida havo - haroratining o'zgarishi
Tadqiqot obyektida sodir bo'layotgan xavfli hodisalarning asosiy sabablaridan biri iqlimning keskin o'zgarishlari ekanligi aniqlandi. Keyingi yillarda kuzatilayotgan anomal sovuq va anomal issiq ham buni tasdiqlab turibdi (6 - rasm).




6 - rasm. Qamchiq dovonida qish oylarida havo - haroratining yillar kesimida o'zgarishi

Yoz oylarida havo – harorati oshayotgan bo'lsada, qish faslida noodatiy iqlim tufayli havo harorati keskin o'zgarimoqda, bu esa o'z navbatida xavfli iqlim hodisalari keskin ortishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot davomida avtomobil yo‘llariga ta’sir qiluvchi bir qancha xavfli hodisalarning statistik ma’lumotlari asosida tadqiq qilinganda tadqiqot obyektida transport vositalarining xavfsiz va to‘xtovsiz harakatiga eng ko‘p qor ko‘chkisi va yo‘l transport hodisalari sabab bo‘lganligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida 15000 dan ortiq qor ko‘chkilari tadqiq qilindi va natijalarga ko‘ra tadqiqot obyektining 4 ta (228 – 229 kmlar oralig‘ida, 235 – 237 kmlar oralig‘ida, 238 – 240 kmlar oralig‘ida va 242 – 243 kmlar oralig‘ida) uchastkasida avtomobil yo‘liga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi (7 - rasm).



7 - rasm. Iqlim ta’sirida kuzatilgan qor ko‘chkilarining tadqiqot obyektiga uchastkalariga ta’siri xaritasi

Qor ko‘chkilarining sodir bo‘lish hududlari iqlim o‘zgarishlariga (havo haroratining ko‘tarilishi) bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Iqlim o‘zgarishi sababli qor ko‘chkilarining sodir bo‘lish uchastkalari nisbatan yuqori tog‘ etaklariga ko‘tarilganligi aniqlandi. Muqaddam tadqiqot obyektiga joylashgan Ohangaron va Sirdaryo havzalari quyidagi tartibda qor ko‘chkisi sodir bo‘ladigan uchastkalarga bo‘lib chiqilgan (8 - rasm).



8 - rasm. Ohangaron va Sirdaryo havzasida qor ko‘chkisi sodir bo‘ladigan uchastkalar

Oxirgi yillarda qor ko‘chkilari sodir bo‘lish joylari o‘zgarganligi geoaxborot

tizimlari yordamida aniqlandi. 2000 yilgacha sodir bo'lgan qor ko'chkilariga nisbatan 2000 yildan keyingi sodir bo'lgan qor ko'chkilari iqlim o'zgarishi ta'sirida o'zgarganligini aniqlandi.


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tadqiqot obyekti A - 373 "M - 39 Guliston – Bo'ka – Angren - Qo'qon va Andijon orqali O'sh" avtomobil yo'lining 4 ta uchastkasida hozirgi kunda qor ko'chkilari sodir bo'layotganligi aniqlandi.

Birinchi uchastka (9 – rasmdagi a) hudud), tadqiqot obyektining 228 - 229 kmlar oralig'ida avtomobil yo'lining chap tomonida sodir bo'lgan, bu tomonda qor ko'chkisini himoya qiluvchi inshootlar mavjud emas.

Ikkinchi uchastka, tadqiqot obyektining 235 – 237 kmlarida joylashgan, bu uchastkada 1072 metrlik tunnel joylashgan, shuning uchun qor ko'chkilari avtomobil yo'lida transport vositalarining harakatiga ta'sir ko'rsatmaydi (9 – rasmdagi b) hudud). Qamchiq dovonida 2002 yil qurilgan ikkita tunnel mavjud.

Uchinchi uchastka, tadqiqot obyektining 238 – 240 kmlarida joylashgan, bu uchastkada qor ko'chkilari nisbatan ko'proq sodir bo'lib, avtomobil yo'lga ta'sir ko'rsatadi (9 – rasmdagi d) hudud).

To'rtinchi uchastka, tadqiqot obyektining 242 – 243 kmlar oralig'ida joylashgan, bu uchastkada qor ko'chkilari nisbatan avtomobil yo'llariga kamroq ta'sir qiladi. Uchastka Qurama tog' tizmasining shimoli – sharqiy qismida joylashgan, Ikkibelsoy va Rezaksoy havzasi ham 138 - qor ko'chkisi hosil bo'luvchi uchastkada joylashgan. Ikkibelsoy shimoli – g'arbiy tomondan janubi – sharqiy tomonga qarab oqadi. Soyning ikki sohili balandliklari bir – biriga yaqin, o'ng qirg'og'i – dengiz sathidan 2448 metr va chap tomon qirg'og'i balandligi – dengiz sathidan 2585 metrni tashkil etadi. Rezaksoy v – shakldan tashkil topgan bo'lib, ba'zi joylari kengligi 30 metrdan 100 metrgacha yetadi (9 – rasmdagi e) hudud).




9–rasm. 2000 yillardan keyin kuzatilgan qor ko'chkilarning tadqiqot obyekti uchastkalariga ta'siri; a) tadqiqot obyektining 228 – 229 kmlar oralig'ida avtomobil yo'lining chap tomonida sodir bo'ladi; b) tadqiqot obyektining 235 – 237 kmlarida joylashgan avtomobil yo'lining ikkala tomonida sodir bo'ladi, lekin bu uchastkada

1072 metrlik tunnel joylashgan qor ko'chkilari avtomobil yo'liga ta'sir ko'rsatmaydi. d) tadqiqot obyektining 238 – 240 kmlarida oralig'ida avtomobil yo'lining chap tomonida sodir bo'ladi; e) tadqiqot obyektining 242 – 243 kmlar oralig'ida avtomobil yo'lining chap tomonida sodir bo'ladi.

Geoaxborot tizimlaridan foydalanilgan holda elektron mavzuli xaritalar yordamida tadqiqot natijalari tahlil qilindi. Keyingi yillarda sodir bo'lgan qor ko'chkilari yuqoridagi to'rtta uchastkada sodir bo'lgan, bu uchastkalardan bittasida qor ko'chkilari avtomobil yo'liga ta'sir ko'rsatmaydi, chunki tadqiqot objekti A - 373 "M-39 Guliston – Bo'ka – Angren - Qo'qon va Andijon orqali O'sh" avtomobil yo'lining 235 – 237 kmlarida 1072 metrlik tunnel joylashgan. Qolgan uchta uchastkada qor ko'chkilari avtomobil yo'llariga ta'sir qilishi aniqlandi.

Tog' va tog' oldi hududlarida iqlim o'zgarishi oqibatida avtomobil yo'llaridagi ekspluatatsiya sharoitiga xavfli hodisalar ta'sirini tadqiq qilish amalga oshirildi. Tadqiqot obyektida havo – iqlim omillarining ta'siri sababli 2000 yildan keyin sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qor ko'chkilarining joylari 2000 yilgacha sodir bo'lganlariga nisbatan teparoqqa ko'tarilganligini aniqlandi (10 - rasm).



10 - rasm. Havo – iqlim omillari o'zgarishi oqibatida avtomobil yo'llarida sodir bo'ladigan qor ko'chkilari joylari o'zgargan; a) va b) 1 uchastka, d) va e) 2 uchastka, f) va g) 3 uchastka, h) va i) 4 uchastkalardagi holatlar

Tadqiqot objekti A - 373 "M-39 Guliston – Bo'ka – Angren - Qo'qon va Andijon orqali O'sh" avtomobil yo'lining kilometr kesimida oxirgi 10, 20 va 30 yil ichida ta'sir qilgan qor ko'chkilar tarqalishi ham shuni ko'rsatib turibdiki, iqlim


o'zgarishi oqibatida qor ko'chkisi kuzatilayotgan uchastkalar tog' bo'ylab yuqoriga siljiganligini ko'rish mumkin.

Statistik tahlil natijalariga ko'ra A - 373 "M-39 Guliston - Bo'ka - Angren - Qo'qon va Andijon orqali O'sh" avtomobil yo'lining 185 - 285 km qismiga ta'sir ko'rsatishi yillar kesimida aniqlandi. Qor ko'chkilari sodir bo'lishi natijasi avtomobil yo'lida transport vositalarining harakati cheklanishi hisobiga har yili minglab odamlar o'z manzillariga yetolmasdan turli murakkabliklarga uchramoqda, misol uchun 2021 yil 12 - martda sodir bo'lgan 5 ta qor ko'chkilarining umumiy hajmi 4 mln. m³ tashkil etgan, buning oqibatida avtomobil yo'li yopilib 790 ta transport vositasi va 3100 kishi avtomobil yo'lida qolib ketgan. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har yili eng kamida A - 373 "M - 39 Guliston - Bo'ka - Angren - Qo'qon va Andijon orqali O'sh" avtomobil yo'li 5 kun yopilishi kuzatiladi (11 - rasm).



11 - rasm. Qor ko'chkilari tufayli yillar kesimida avtomobil yo'lining yopilishi

Tadqiqot obyektida 2000 yildan keyingi sodir bo'lgan barcha qor ko'chkilar tadqiq qilinganda, transport vositalarining xavfsiz va to'xtovsiz harakatiga ta'sir ko'rsatgan qor ko'chkilar sodir bo'lgan joylarining qor ko'chki o'choqlari ajratib chiqildi (12 - rasm).



12 - rasm. Tadqiqot obyektida avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitiga ko‘ra ajratilgan qor ko‘chki o‘choqlari

Tog‘li hududlarda joylashgan avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining transport vositalarining xavfsiz va to‘xtovsiz harakatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini kamaytirish uchun keyingi boblarda mukammal yondashuvlar taklif etiladi. Keyingi bobda tog‘li hududlarda transport vositalarining xavfsiz va to‘xtovsiz harakatini tashkil etish bo‘yicha ishlar tashkil etiladi. Yuqorida tadqiq qilingan 4 ta uchastkadan 3 tasida qor ko‘chki xavfi kuzatilishi mumkin. Shu uchastkalarda qor ko‘chkilarini oldini olish uchun muhandislik inshootlarini o‘rnatish bo‘yicha tavsiyalar va qor ko‘chkilarini prognozlash usuli takomillashtirilgan.


Qor ko‘chkisi balandligi va qor ko‘chkisi masofasi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud bo‘lsada, massasi, hajmi yoki maydoni bilan bunday aniq aloqa ishlamaydi.

Dissertatsiyaning **“Tog‘li hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llariga ta‘sir qiluvchi qor ko‘chkilarining shakllanishi va ta‘sirini tadqiq qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida Tog‘li hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitiga ta‘sir qiluvchi qor ko‘chkilarining shakllanishi tadqiq qilingan. Avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitida transport vositalarining xavfsiz va to‘xtovsiz harakatini tashkil etish asosan muhandislik inshootlarini qo‘llashga asoslangan. Tog‘li hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llariga ta‘sir qiluvchi qor ko‘chkilarini prognoz qilish usuli takomillashtirilgan.

Haddan tashqari xavfli ekspluatatsiya sharoitlar tufayli avtomobil yo‘lini qor ko‘chkisi chizig‘idan pastda samarali himoya tuzilmalari va tadbirlarini loyihalashni talab etadi.

Favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaradigan qor ko‘chkisi hodisalarini yuqori burchakli (tabiiy), pastki burchakli (tabiiy-antropogen), qiyalik (antropogen)

- inson ta'siri natijasida transport vositalarining xavfsiz va to'xtovsiz harakatni tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatadi (13 - rasm).



13 - rasm. Qor ko'chki hodisalarini avtomobil yo'li o'qiga nisbatan joylashishiga qarab tasniflash

Tog' va tog' oldi hududlarda avtomobil yo'llari infratuzilmasi obyektlarini himoya qilish uchun qishda qor ko'chkilariga qarshi muvaffaqiyatli kurashish uchun qor ko'chkisi bo'lgan joylarni batafsil monitoring qilish kerak.


Qor ko'chkisi vaqti va parametrlarini prognoz qilish ekspluatatsiya qilish, favqulodda vaziyatlar vazirligining qutqaruvchilarining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Qor ko'chkisi sodir bo'lgan joylarda muhandislik inshootining to'g'ri joylashishiga, himoya inshootining transport vositalarining xavfsiz harakati va avtomobil yo'llarining ekspluatatsiya sharoitlarini saqlab turish kerak.

Tog'li sharoitdagi avtomobil yo'llari katta qiyaliklar va kichik radiusli egriliklardan iborat bo'lib, harakatning xavflilik darajasi yuqori va murakkab obyekt hisoblanadi.

Ushbu tizimda optimallashtirish vazifasi transport oqimi uchun xavfsiz rejimda va ekologik zararni minimallashtirish bilan yo'lning ishonchli va uzoq muddatli ishlashini ta'minlaydigan quyi tizimlarning (avtomobil yo'li - transport vositalari - iqlim o'zgarishi) o'zaro ta'sir qilish sxemalarini tashkil etishdan iborat. Optimallashtirish muammosini hal qilishning asosiy usuli qor ko'chki xavfi tabiati va parametrlariga qarab qor ko'chkisidan himoya inshootlari, tadbirlari va qurilmalarini ishlab chiqishda taqdim etilishi mumkin.

Avtomobil yo'llari va iqlim o'zgarishi muhitining o'zaro ta'sir qiluvchi omillarini tahlil qilish boshqariladigan va boshqarilmaydigan deb tasniflanishi kerak.

Tadqiqot ishlarini olib borish davomida iqlim o'zgarishlari oqibatida sodir bo'lgan qor ko'chkilarni prognozlash usulini takomillashtirish amalga oshirildi. Qor ko'chkilari sodir bo'lishiga ko'ra to'plangan ma'lumotlar guruhlariga ajratib chiqildi. Qor ko'chkilari sodir bo'lishiga ta'sir qilmaydigan (tuman, ko'rish masofasi, transport vositalarining harakat tezligi va boshqalar) ma'lumotlar inobatga olinmadi. Qor ko'chkilari sodir bo'lishiga ta'sir qiluvchi omillarning (tog' yon bag'ri qiyaligi, qor qatlami qalinligi, havo harorati, shamol tezligi, qor ko'chkisi hajmi, avtomobil



15 - rasm. Tadqiqot obyektida avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitiga ta’sir qiluvchi qor ko‘chkilarini “Qaror daraxti” modeli yordamida har bir uchastkani prognoz qilish: a) tadqiqot obyektining 228 - 229 kmlar oralig‘ida avtomobil yo‘lining chap tomonida sodir bo‘ladi; b) tadqiqot obyektining 235 - 237 kmlarida joylashgan avtomobil yo‘lining ikkala tomonida sodir bo‘ladi, lekin bu uchastkada 1072 metrlik tunnel joylashgan qor ko‘chkilari avtomobil yo‘liga ta’sir ko‘rsatmaydi. d) tadqiqot obyektining 238 - 240 kmlarida oralig‘ida avtomobil yo‘lining chap tomonida sodir bo‘ladi; e) tadqiqot obyektining 242 - 243 kmlar oralig‘ida avtomobil yo‘lining chap tomonida sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarda ham avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoiti hamda infratuzilma obyektlariga qor ko‘chkilarini ta’sirlarini oldini olish uchun prognoz qilish usullari ishlab chiqilgan, lekin ishlab chiqilgan prognoz qilish usullariga nisbatan tadqiqot asosida tavsiya etilgan takomillashtirilgan qor ko‘chkilarini prognoz qilish usulini qo‘llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash kerak bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Tog‘li hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llariga ta’sir qiluvchi qor ko‘chkilar bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarning iqtisodiy samaradorligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida tog‘li hududlarda avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitiga ta’sir qiluvchi qor ko‘chkilarini prognoz qilishning takomillashtirilgan usulining iqtisodiy samaradorligi hisoblangan.

Iqtisodiy samaradorlikni hisoblashda Jahon tajribasini hisobga olsak, qor ko‘chkilari sodir bo‘lishi oqibatida yo‘ldan foydalanuvchilar xarajatlarini hisoblashda HDM – 4 RUC dasturi yordamida ham hisoblab chiqish imkoni mavjud.

Tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida transport oqimi harakatining uzluksizligini ta’minlash maqsadida qor ko‘chkilarning sodir bo‘lishini prognozlash

usulini iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda takomillashtirishning iqtisodiy samaradorligi:

Iqtisodiy samaradorlik = Tayyorgarliksiz umumiy yo'qotishlar - Tayyorgarlik bilan umumiy xarajatlar

$$7\,455\,193\,250 \text{ so'm} - 5\,422\,154\,600 \text{ so'm} = \mathbf{2\,003\,038\,650} \text{ so'm}$$

Hisob ishlaridan ma'lum bo'ldiki, tadqiqot obyektida transport oqimi harakatining uzluksizligini ta'minlash hisobiga keladigan iqtisodiy samaradorlik bir yil davomida **2 003 038 650** so'mni tashkil qiladi.

XULOSA

“Tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining sodir bo‘lishini prognozlash usulini takomillashtirish (Qamchiq dovoni misolida)” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalarida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. tadqiqot obyektining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy – siyosiy jihatdan strategik ahamiyati, tadqiqot obyektiga ta‘sir qiluvchi qor ko‘chki hodisalarning shakllanishi nazariy ma‘lumotlar asosida aniqlandi;

2. tadqiqot objekti sifatida belgilab olingan A - 373 “M-39 Guliston – Bo‘ka – Angren - Qo‘qon va Andijon orqali O‘sh” avtomobil yo‘li joylashgan hududning 3D shakli geoaxborot texnologiyalarini qo‘llash orqali yaratildi;

3. A - 373 “M-39 Guliston – Bo‘ka – Angren - Qo‘qon va Andijon orqali O‘sh” avtomobil yo‘lida harakat jadalligi 2023 yilda oldingi yillarga nisbatan 7 barobarga oshganligi aniqlandi;

4. O‘zbekiston Respublikasida iqlim va havo haroratining o‘zgarishi tadqiq qilindi. Tog‘ va tog‘ oldi hududlarida iqlim o‘zgarishi tadqiq qilinganda, qor ko‘chkilari sodir bo‘ladigan qish faslining dekabr oyida -5,5 gradus, yanvarda 1,5 gradusga hamda fevral oyida 1 gradusga o‘zgarganligi aniqlandi;

5. tog‘li sharoitdagi avtomobil yo‘llarida qor ko‘chkilarining innovatsion elektron mavzuli xaritalari yaratildi. Yaratilgan innovatsion elektron mavzuli xaritaga asosan 2000 yildan keyingi qor ko‘chkilar ta‘siri tadqiqot obyektining 4 ta yo‘l uchastkalariga ta‘sir ko‘rsatishi innovatsion elektron mavzuli xaritalari asosida aniqlandi;

6. tadqiqot obyektining yuqorida sanab o‘tilgan uchastkalarining birinchisida qor ko‘chkilari 2000 yilgacha dengiz sathidan 1502 metrda sodir bo‘lgan 2000 yildan keyin esa 1763 metr balandliklarda sodir bo‘lganligi aniqlandi. Ikkinchi uchastkada qor ko‘chkilari 2000 yilgacha dengiz sathidan 1501 metrda sodir bo‘lgan 2000 yildan keyin esa 2326 metr balandliklarda sodir bo‘lganligi aniqlandi. Uchinchi uchastkada qor ko‘chkilari 2000 yilgacha dengiz sathidan 2209 metrda sodir bo‘lgan 2000 yildan keyin esa 2232 metr balandliklarda sodir bo‘lganligi aniqlandi. To‘rtinchi uchastkada esa qor ko‘chkilari 2000 yilgacha dengiz sathidan 1499 metrda sodir bo‘lgan 2000 yildan keyin esa 2106 metr balandliklarda sodir bo‘lganligi aniqlandi.

7. O‘zbekiston Respublikasining tog‘li hududlarida joylashgan avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sharoitida xavfsiz va to‘xtovsiz harakatga ta‘sir ko‘rsatuvchi qor ko‘chkilarining ta‘sirini “Qaror daraxti” modeli yordamida prognozlash usuli takomillashtirildi;

8. tadqiqot ilmiy natijalarini tadbqiq etishning iqtisodiy samaradorligi bir sutkada transport vositalarining xavfsiz va to‘xtovsiz harakatini tashkil etish orqali **2 003 038 650** (ikki milliard uch million o‘ttiz sakkiz ming olti yuz ellik) so‘m miqdorda iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.15/31.08.2022.Т.73.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЯДГАРОВ СИРОЖИДДИН НОМОЗОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ПРОГНОЗИРОВАНИЯ
ВОЗНИКНОВЕНИЯ СНЕЖНЫХ ЛАВИН НА АВТОМОБИЛЬНЫХ
ДОРОГАХ В ГОРНЫХ УСЛОВИЯХ (НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕВАЛА
КАМЧИК)**

**05.09.02 - «Геотехника» (по направлениям дороги, цифровизация дорог и
безопасность дорожного движения. Дорожная телематика)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2024.3. PhD/Т4966.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб – сайта (www.tstu.uz) и в информационно – образовательном «Ziyounet» по адресу www.ziyounat.uz

Научный руководитель: **Садиков Жамшид Ибрагим угли**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Салиханов Саидхон Салиханович**
кандидат технических наук, профессор
Хотамов Асадулла Тоштемирович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: **Наманганский инженерно-строительный институт**

Защита диссертации состоится “___” _____ 2024 г. в _____ часов на заседании Научного совета PhD.15/31.08.2022.Т.73.05 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167. г. Ташкент, улица Адылходжаев, 1. Тел/факс: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентском государственном транспортном университете. (зарегистрирована №___). (Адрес: 100167. г. Ташкент, улица Адылходжаев, 1. Тел/факс: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Автореферат диссертации разослон “___” _____ 2024 года.
(реестр протокола рассылки № ___ от “___” _____ 2024 года).

А.Х. Уроков

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

Р.М. Худайкулов

Ученый секретар научного совета по
присуждению ученых степеней,
PhD, профессор

И.С. Садиков

Председатель Научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность темы исследования. В мире, в том числе в Узбекистане, согласно заключениям ученых по изменению климата, важное значение имеет вопрос предотвращения снежных лавин из-за повышения средней температуры воздуха, сильных осадков, внезапных похолоданий, неблагоприятных гидрометеорологических явлений. Проведенный анализ показывает, что аномальные холода, наблюдавшиеся зимой 2023 года, аномальная жара летом, опасные климатические явления, произошедшие в 2024 году, также являются следствием изменения климата. Кроме того, экологическая катастрофа высыхающего Аральского моря считается одной из четырех наиболее актуальных проблем в мире. В то же время изменение климата, как и во всех сферах, оказывает значительное влияние на инфраструктуру автомобильных дорог. В связи с этим особое внимание уделяется выявлению причин возникновения снежных лавин на автомобильных дорогах, проходящих через горные районы, и прогнозированию их схода, созданию единой базы данных об очагах возможного схода лавин, моделированию возникновения снежных лавин во времени и повышению эффективности мероприятий, направленных на их предотвращение.

В мире проводятся научно-исследовательские работы по обеспечению непрерывного движения транспортных потоков на автомобильных дорогах, проходящих через горные и предгорные районы, постоянному мониторингу изменения температуры воздуха, созданию электронных тематических карт территорий, подверженных снежным лавинам, моделированию схода снежных лавин и оптимизации работ по их предупреждению, классификации и прогнозированию снежных лавин. При сходе снежных лавин на автомобильных дорогах в горных и предгорных районах актуальное значение приобретает усовершенствованный способ оперативной ликвидации последствий (на основе принципов места и времени их возникновения), а также усовершенствованный способ прогнозирования снежных лавин с помощью метода “Дерево решений” (decision tree) с учетом климатических изменений на автомобильных дорогах и показателей, влияющих на образование снежных лавин (температура воздуха, крутизна склона, толщина снежного покрова, объем снежной массы).

В Республике проводятся широкомасштабные мероприятия по разработке и практическому применению новых технологий, способствующих повышению срока службы и улучшению потребительских характеристик горных и предгорных автомобильных дорог, на которых возможен сход снежных лавин, а также повышению эффективности работ по предотвращению схода снежных лавин. В “Национальном плане действий” Республики Узбекистан по снижению риска стихийных бедствий и повышению устойчивости к изменению климата на 2023 - 2030 годы определены задачи, в том числе “Разработка и организация эффективной реализации национального плана действий по борьбе с изменением климата и

рисками стихийных бедствий”. При реализации этих задач, в частности, важным является мониторинг и прогнозирование схода снежных лавин с выявлением лавиноопасных территорий, развитие сетей наблюдения и контроля за гидрометеорологическими параметрами, подготовка прогнозных данных и карт лавинной опасности, их регулярное обновление.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит обеспечению исполнения задач, установленных в нормативно-правовых документах, а также в Указе Президента Республики Узбекистан №60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, ПП №171 “О мерах по эффективной организации деятельности Министерства экологии, охраны окружающей среды и изменения климата”, ПП №190 “О мерах по надежному обеспечению безопасности человека и резкому сокращению случаев смертности на автомобильных дорогах”, постановление КМ №362 “О разработке национального плана действий по противодействию изменению климата и рискам стихийных бедствий и организации его эффективной реализации”, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

